


SHUKUR XOLMIRZAYEVNING HAYOT YO'LI

*To‘ymurodova Dinora Otabek qizi**Termiz Davlat Universiteti**Madaniyat va san’at muassasalarini tashkil etish
hamda boshqarish ta’lim yo‘nalishi talabasi*

Annontatsiya: Ushbu maqolada J. London, E. Xeminguey, S. Tompson kabi jahonning mashhur yozuvchilari qatorida tabiat mavzusida o‘lmas asarlar yaratgan Shukur Xolmirzayevning hayoti, yozgan asarlarining adabiyotimizga qo‘shtan hissasi va o‘rganilishi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlari: Shukur Xolmirzayev, inson va tabiat, hikoya, qissa, roman, „Abadiy zamondoshlar“, pyesa, esse

1991-yilda „O‘zbekiston Xalq Yozuvchisi“ unvoniga sazovor bo‘lgan Shukur Xolmirzayev Fayzullo o‘g‘li 1940-yil 24-mart sanasida Surxondaryo viloyati Boysun tumanida dunyoga kelgan. Otasi asli Bulung‘urlik bo‘lib, 1937-1938-yillarda Boysunga ketishga majbur bo‘lgan. Yozuvchi Boysundagi o‘rta maktabni tugatgach, Toshkent Davlat Universitetining Jurnalistika fakultetiga o‘qishga kiradi va 1963-yilda oliygojni tamomlaydi. Shundan so‘ng Shukur Xolmirzayev 1963-1967-yillarda „Yosh gvardiya“ nashriyotida muharrir, 1967-1969-yillarda Muqumiy nomidagi musiqali drama teatrida adabiy emakdosh, 1969-1975-yillarda „Guliston“ hamda 1978-1980-yillar oralig‘ida „Sharq yulduzi“ jurnallarida adabiy xodim, bo‘lim mudiri sifatida faoliyat ko‘rsatgan.

Buyuk aktyor Shukur Burhonov rahbarligida tashkil etilgan to‘garakda Shukur Xolmirzayev Gamlet rolini o‘ynagan va Ofeliya rolini o‘ynagan Saida ismli qizga uylangan.

Yozuvchi Abdulla Qodiriy va Abdlla Qahhordan so‘ng hikoyachilik san’atini yuqori pog‘onaga olib chiqdi. U 1958-yildan boshlab dastlabki hikoya va ocherklarini nashr ettira boshlagan. Uning ilk hikoyasi „Xatarli so‘qmoqda“ deb nomlanadi. Ijodining ilk davrlaridayoq hikoya bilan yonma-yon tarzda qissa janrida ham o‘z qalamini sinab ko‘rdi va „Oq otli“ (1962-yil tog‘ bolalari hayotidan hikoya qiluvchi birinchi qissasi), „To‘lqinlar“ (1963), „O’n sakkizga kirmagan kim bor?“ (1965) kabi qissalarini yozdi. Adib 1971-yilda „Olis yulduzlar ostida“, 1974-yilda „Hayot abadiy“, 1980-yilda „Og‘ir tosh ko‘chsa...“, 1984-yilda „Yo’llar yo‘ldoshlar“, 1986-yilda „Bodom qishda gulladi“, 1987-yilda „Tog‘larga qor tushdi“ kabi hikoyalardan iborat to‘plamlarini e’lon qildi. Bu yillarda yaratilgan hikoyalarida adib o‘zi tug‘ilib o’sgan Boysun tumanidagi yashovchi turfa tabiatli kishilar hayoti, jamiyatda va ularning ruhiy olamida kechgan kurash va o‘zgarishlar, inson va hayvonot dunyosining

inson va o'simliklar olamining bir-biriga chambarchas bog'liqligi, birining ikkinchisiga ta'siri, tabiatning insonni tarbiyalashdagi ahamiyatini ko'rsatib berishga harakat qiladi. Uning dastlabki hikoya va qissalaridagi romantik pafos keyinchalik o'z o'rnini realizmga bo'shatib berdi va yozuvchining o'zbek adabiyotiga „shafqatsiz realizm” unsurlarini olib kirishiga imkoniyat ochdi.

Adib „So'nggi bekat”(1976), „Qil ko'prik”(1984), „Yo'lovchi”(1987), „Olabo'ji”(1982), „Dinozavr”(1 kitob 1996) singari romanlar muallifidir. Yozuvchilar ichida birinchilardan bo'lib Shukur Xolmirzayev tariximizning „bosmachilik harakati” deb nomlangan davrini o'rgana boshladi va 1987-yilda shu mavzu o'z aksini topgan „Qora kamar” pyesasini yozdi. Ushbu pyesa Abror Hidoyatov nomidagi Yoshlar teatrida sahnalashtirilgan. Keyinchalik esa sho'ro davridagi xotin-qizlarning fojiali taqdirini o'zida aks ettirgan „Ziyofat” pyesasini e'lon qildi. Bu pyesa ham Yoshlar teatrida sahnalashtirilgan. Adib Shukur Burhonov haqida hujjatli esse, Matyoqub Qo'shjonov haqida „U ustoz – men shogird” nomli hujjatli qissa ham yozgan. Bundan tashqari yozuvchi B.Zokirov, R.Choriyev, Shuhrat, Odil Yoqubov, O'lmas Umarbekov, Abdulla Oripov singari taniqli adib va san'at namoyondalari haqida esse va adabiytanqidiy maqolalar yozgan.

Yozuvchining ijodi haqida ko'plab maqolalar va tadqiqotlar yozilgan, jumladan, H.Karimovning „Shukur Xolmirzayev ijodiy portreti” risolasi, akademik B.Nazarovning „Shukur Xolmirzayev” nomli ijodiy portreti yaratilgan. Adibning hikoyalari to'g'risida R.Qo'chqorov, U.Normatov, O.Otaxonov, S.Mamajonov, H.Boltaboyev, Q.Yo'ldoshevlarning, qissalari bo'yicha esa M.Qo'shjonov, M.Olimov, A.Rasulovlarning fikrlari keltirilgan maqolalari nashr qilingan. Olim Toshboyevning „Abadiy zamondoshlar”(2018) kitobida yozuvchi asarlarining yozilish tarixi, sababi, yozuvchi shaxsiyati haqida fikrlar yuritilgan.

Tanqidchi U.Normatov „Zaminda yashaymiz, zaminni o'ylaymiz” maqolasida Sh.Xolmirzayev hikoyalari xos bo'lgan xususiyat haqida shunday yozadi: „Inson va tabiat munosabati Sh. Xolmirzayev hikoyerlarining yetakchi leytmotiviga aylanib qoldi. Shunisi xarakterlik, yozuvchining so'nggi yillarda yaratgan deyarli barcha hikoyalari shu mavzu atrofida aylansa-da, ular bir-birini takrorlamaydi, har gal avtor masalaning yangi qirrasini kashf etadi, yangi xarakter yaratadi, xarakter qalbining yangi tomonini ochadi.....”. Bu fikrdan kelib chiqib yozuvchining inson va tabiat mavzuidagi hikoyerlarini kuzatsak, inson xarakterining qanchalar murakkab ekanligi, bu murakkablikar, uning hatto, tabiatga munosabatlarida ham namoyon bo'lishini ko'ramiz.

Shukur Xolmirzayev jahoning mashhur yozuvchilari qatorida, ularga bo'ylasha oladigan darajada tabiat mavzusida takrorlanmas asarlar yaratadi. Bu xizmatlari munosib taqdirlangan. Yozuvchiga Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofoti(1989), Yozuvchilar uyushmasining „Oybek” mukofoti, O'zbekiston Davlat

mukofoti sovrindori, „ O’zbekiston xalq yozuvchisi”(1991), „Mehnat shuhrati”(1999) ordenlariga sazovor bo’lgan.

O’tkir qalam sohibi Shukur Xolmirzayev 2005-yil 29-sentabr kuni Toshkentda vafot etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 8-sinf adabiyot darsligi.
2. U.normatov(1982) Uslub. Badiiy shakl muammolari. Yetuklik 356
3. Ziyo.com kutubxonasi.